

## YOVOYI O'SIMLIKLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

**Xidirnazarov Muhammad Kamol o'g'li**

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**Norimov Azimjon Qaxramon o'g'li**

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**Rajabov Og'abek To'lqin o'g'li**

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yovvoyi dorivor o'simliklar haqida shuningdek ularning tibbiyotdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Dorivor o'simliklar, shifobaxsh, kasallik, o'simlik, yalpiz, qoqio't, organizm, muhofaza.

Respublikada so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan, shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda. Shu bilan birga, tahlillar dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda o'sayotgan 47 ga yaqin o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari to'g'risida ma'lumot keltirgan. Ibn Sino yaratgan asardagi shifobaxsh o'simliklardan dori tayyorlash va ulardan kasalliklarni davolashda foydalanish usullari to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlardan nafaqat o'z xalqimiz balki butun dunyo ahli foydalanib keltirgan. Biroq keyingi yillarda dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish, ularni shifobaxshlik xususiyatlarni o'rganish va tabobatga qo'llash keskin kamayib ketdi. Qancha-qancha maydondagi shifobaxsh o'simliklarimiz nazoratisiz qoldi. Ammo mustaqillikning sharofati ila, prezidentimiz say-xarakatlari va shu soxaga bergan e'tiborlari, 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish madaniy xolda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish" chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori shifobaxsh o'simliklarni qaytadan o'rganish ularni ko'paytirish, xalq tabobati udumlarini zamonaviy farmosevtika bilan uyg'unlashgan xolda ishlab chiqarish imkoniyatlarini yanada kengaytirish istiqbolini belgilab berdi

Dorivor o'simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qaryib 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (ur'ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.

Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simlikning qismlarida turli miqdorda to'planadi. Dorining ta'sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo'lish davri ularning gullash hamda urug'lash davrining boshlanishi vaqtiga to'g'ri keladi. Dorivor moddalar ba'zi o'simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba'zi o'simliklarning guli yoki mevasida, ba'zilarida ildizi yoki po'stlog'ida to'planadi. Shuning uchun o'simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko'p bo'lgan qismi yig'ib olinadi. O'simliklarning ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagi, odatda, o'simlik uyquga kirgan davrda — kech kuzda yoki o'simlik uyg'onmasdan oldin — erta bahorda tayyorlanadi. O'simlikning meva va urug'lari pishib yetilganda yig'iladi, chunki ular bu paytda dori moddalariga boy bo'ladi. Yangi ykg'ib olingan dorivor o'simlik mahsuloti tarkibida (yer ustki a'zolarida 85% gacha, ildizida 45% gacha) nam bo'ladi. Bu nam yo'qotilmasa (quritish yo'li bilan), o'simlik chirib, dori moddalari parchalanib, yaroqsiz bo'lib qoladi.

Qoqio't (momaqaymoq) ning foydali xususiyatlari Qoqio'tning bargi va ildizida achchiq gilikazitlar trakseral birikmalari bor. Abu Ali ibn Sino jigar va istisho kasalligiga qo'llagan. Qoqio'tning ildizi bargi poyasidan tayyorlangan damlama jigar va o'tsiydik haydovchi hamda ishtahani ochuvchi qonni tozalovchi shuningdek surgid ori sifatida ishlatiladi. Qaynatilgan damlamasi oshqozonda xlorit kislota yetishmasligi sababli rivojlanadigan gastrid podakra va teri kasalliklarida eng yaxshi shifo vositasidir. Bazan damlamasi finchlantiruvchi vositasi sifatida ishlatilsa yangi uzilgan qoqi bargi shirasi kamqonlik, quvvatsizlik va ko'krak sohasi og'riganda eng yaxshi davo bo'ladi.

Mamlakatimizda yalpizning qora, osiyo suv, qalampir turlari bor. Yalpizning bargi va poyasining qaynatilgan damlamasidan tish og'rig'i, milk yalliglanishiga davo bo'ladi. Abu Ali ibn Sino ichak og'riqlarini davolashda qabziyat ovqatni yaxshi hazm qilishda tavsiya etgan. Meda ichak yo'li spazmi sariq kasalligi vabo silda davolangan zamonaviy tibbiyotda yalpizning og'riq qoldiruvchi yalliglanishga qarshi kurashuvchi jigildon qaynashi qorin dam bo'lishida yordam beradi. Shuningdek safro haydovchi hamda jigarni tozalovchi angina gripp qiynayotgan bo'lsa yordam beradi. Yalpizning quritib qaynatilgan damlamasi ko'ngil aynishini oldini oladi.

Yovvoyi o'simliklar tibbiyot sohasidagi ahamiyati juda katta. Ular odamlar uchun davolash usullarining bir qismini ta'minlashda katta o'rnak bo'ladi. Yovvoyi o'simliklardan tayyorlangan davolash preparatlari sun'iy moddalardan farq qiladi, natural va tuzatilgan tarkibiy moddalar yordamida kasalliklarni davolanishga imkon beradi. Bu o'simliklar ila davolash tibbiyot va fito-terapiya sohalarida keng qo'llaniladi.

Yovvoyi o'simliklarning tibbiyotdagi ahamiyati quyidagi bir necha muhim aspektlarga ega:

- Davolash vositalari: Yovvoyi o'simliklardan olingan ekstraktlar, mahsulotlar, kasalliklarni davolashda muhim rollarni bajaradi. Ularning antiseptik, antibakterial, zaharli moddalar o'chiruvchi xususiyatlaridan foydalaniladi.

- Dorivorligi: Yovvoyi o'simliklar asosan vitaminlar, mineral moddalar, hlorofill va boshqa moddalar bilan boyitilganligi tufayli odamlarning asab, immunitet va umumiy sog'lomligini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Biologiya uslubiy qo'llanma. Qo'qon. 2014.
2. Isaqov, T., & Mamatyusupova, R. (2022). ALOE O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. Science and innovation, 1 (D7), 623-626.
3. Isaqov, T., & Esonova, I. (2022). QIZIL KITOBGA KIRITILGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI. Science and innovation, 1 (D7), 428-433.
4. Yoziyev, L.X, Arabova, N.Z Dorivor o'simlik "Toshkent-2017"
5. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulcheyeva, D.Mustafakulov Dorivor O'simliklar Yetishtirish Texnologiyasi va Ekologiya "Toshkent-2020"